



ADABIYOTDA GENDER TENGLIK

Xalova Maftuna Abdusalamovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotda gender tenglik masalasi va uning mohiyati yoritilgan. Gender tenglik va uning o'ziga xos jihatlari Amerika adabiyotining yetuk vakillaridan biri Daniela Stil asarlari tahlili orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: gender nazariyasi, ayollar adabiyoti, ijtimoiy muammo.

Gender nazariyasi: erkaklar va ayollar, ya'ni turli jinsga mansub bo'lganliklari uchungina o'zaro farqlanadilar. Faqatgina mana shu farq o'zgarmasdir, deb e'tirof etadi. Gender nazariyasining vujudga kelishi ayollar muammosiga bir tomonlama yondashuvga chek qo'yadi. Inson huquqi – ayol huquqi, inson muammosi – ayol muammosi ekanligini e'tirof etadi. Gender nafaqat ayollarning jinsiy mansubligini, balki sinfiy, etnik, oiladagi mehnat taqsimotining o'ziga xosligi kabi jihatlarni ham hisobga oladi.

Gender muammosi, avvalo, ijtimoiy muammo ekanligi, ya'ni faqat ayolning emas, balki erkaklarning ham, jamiyatning ham muammosi ekanligini ta'kidlashga to'g'ri kelmoqda. Ular biologik jinslar va aholini ko'paytirish borasidagi vazifalar taqsimotinigina anglatmaydi. Gender munosabatlar butun madaniyat, jamiyat qurilishi, davlat institutlari, qaror qabul qilish jarayonlari va fikrlash uslublarini qamrab oladi. Ular tilga, urf-odatlariga, uy va hatto ishlab chiqarishga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda, gender yondashuvi yaxlitligi uni "feministik" va "xotin-qizlar" masalalaridan ajratuvchi asosiy jihatlardan biridir.

Zamonaviy Amerika adabiyotining yetuk vakillaridan biri Daniela Stil hayoti va ijodi misolida gender tushunchasi bilan bog'liq qator muammolar talqin etilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu uning "Taqdir so'qmoqlari", "O'g'irlangan baxt", "Bo'sa" romanlarida yorqin aks etgan.

"To'liq nomi Daniela Fernanda Dominika Myuriyel Emili Shuleyn-Stil (Daniella Fernande Dominique Muriel Emily Schuelein-Steel) bo'lgan bo'lajak adiba AQShning Nyu-York shtatida tadbirkor Jon Shuleyn-Stil va portugaliyalik diplomatning qizi Norma de Kamara Ston-Reys oilasida 1947-yil 14-avgustda dunyoga kelgan. Uning otasi – millati bo'yicha yahudiy, ikkinchi jahon urushi paytida o'zining "Lo-wenbrau" pivo zavodidan mahrum bo'lib, fashistlar ta'qibidan AQShga qochishga majbur bo'lgan".



Daniela Stil butun dunyoda ishqiy romanlar muallifi sifatida mashhur. Ularda bayon qilinadigan voqealarning ko'pchiligi o'z hayotiy tajribalari bilan bevosita bog'liqdir. Yozuvchining ikkinchi turmush o'rtog'i Deni Zugelder bo'lgan. Biroq ularning oilaviy turmushi juda qisqa muddat davom etgan. Daniela Stilning navbatdagi – uchinchi eri sobiq giyohvand Uilyam Tot bo'lgan. Bu nikoh ham uzoqqa cho'zilmagan. Bu turmushdagi oilaviy muammolar adibaning navbatdagi romani – “Ehtiros va’dasi” (“Passion’s Promise”, “Golden Moments”, 1977) nomi bilan e’lon qilinadi. Unda giyohvandni sevib qolgan asar qahramonining murakkab taqdiri haqida so’z boradi. Yozuvchi yana bir romani “Esdaliklar”da (“Remembrance”, 1981) giyohvand erini bu asr vabosi dardidan qutilishiga yordam berishga intilayotgan ayolning qo’rqinchlari va uqubatlari yorqin ifodasini topgan.

Munaqqidlarning ta’rificha “Taqdir so’qmoqlari” – bu o’z bolaligi o’tgan uyini hiylagardan tortib olish uchun hamma narsaga tayyor irodali ayol hamda uning muhabbatini qozonish uchun vosita tanlab o’tirmaydigan, so’zini o’tkaza oladigan erkak munosabatlari tarixidir. Bu roman – vaqt sinovidan o’tgan sadoqatli do’stlik va jonni fido qilishga arzigulik ehtirosli muhabbat qasidasidir. Bu asar – kitobxonni sehrlashga qodir sirli ishqiy sarguzashtlar, javobini topish o’lim xavfini tug’diradigan g’aroyib jumboqlar, g’ayrioddiy hodisalar ummonidir.

Roman yozuvchining boshqa ishqiy asarlari qatori sarguzasht voqealarga boy. Unda ham bolaligida avtohalokat oqibatida ota-onasi va akasidan judo bo’lgan Mari-Anj Xokinsning yoshligi tufayli do’st bilan dushmani, otashin muhabbat bilan sevgi niqobi ostidagi firibgarlikni ajrata olmay ko’rgan-kechirganlari ta’sirchan ifodasini topgan.

Daniela Stilning “O’g’irlangan baxt” romani qahramonlari Marel va Charlz. Romanda Marielning farzandi o’limi sabab ruhiy iztiroblari o’z ifodasini topgan. Asarda bosh qahramon Mariel ikki bora turmush qursa-da, ikki bora farzand ko’rsa-da, biroq ikki bora ham farzandidan judo bo’lgan onaning qalb qiynoqlari zuhur topgan. Asar shu bois ham o’g’irlangan baxt deya nomlangan.

“Bo’sa” romanida ham romantik muhabbat va uning iztiroblari o’z ifodasini topgan. Asar qahramonlari – Izabel va Bill. Ularni taqdir avtomobil to’qnashuvi sabab uchrashtiradi. Avtomobil to’qnashuvining o’ziyoq har bir inson ko’z o’ngida beixtiyor butun hayoti, quvonchlari va uqubatlari o’tadi. O’tkinchi dunyoda hayotning qadriga yetish, o’z baxtini topish uchun kurashish zarurligi yanada oydinlashtiradi.

Daniela Stilning Gulchehra Muhammadjon tomonidan tarjima qilingan yana bir romani – “Sayohat” da media-magnat Jek Xanter va uning rafiqasi televideniye ko’rsatuvlari yulduzlaridan hisoblangan Meddini Vashington



baxtiyor juftligining kechinmalari qalamga olingan. Bu oiladan hamma hayratga tushadi, ularga havas qilishadi. Biroq risoladagi oilaning tashqi nigohlardan yashirin haqiqiy turmushi zulmat ichida, nihoyatda jirkanch, qabih sirlar bilan qoplangan.

“Bunday oila boqiylikka da’vo qilishga ojiz. O’zgalar uchun baxtiyorlikni namoyish qilaverishning ham chegarasi bo’ladi. Sabr kosasi to’lib-toshadi, metindek mustahkam deb hisoblab kelingan qo’rg’on parokandalikka yuz tutadi. Kechagi hamma havas bilan qaraydigan Meddini Vashington o’tmishidan voz kechib, hammasini boshqatdan boshlashga majbur...”

Ayollar badiiy nasri va she’riyatida bu adabiyotning shak-shubhasiz o’ziga xosligini ko’rsatuvchi qonuniyatlar shakllangan. Amerika adabiyotida XIX asr yozuvchilariga o’z huquqlarini ta’minlashga imkon beradigan shart-sharoitlar yaratilgan edi: ular nasroniylar va Viktoriya diniga mansub bo’lib, erkaklar va ayollarga tug’ilmaslaridanoq boshqa-boshqa axloq kodeksi belgilanganligiga va hayotda ham har jinsga o’ziga loyiq mashg’ulotlar tayinlanganiga ishonishgan. Bu ilohiyot g’oyasi ularning asarlari sahifalariga ko’chirildi va ayol qahramonlar kundalik vasvasalarni yengib, o’zlarining ajdodlari tamoyillarini munosib ravishda olib borganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Замонавий Америка романлари. – Тошкент: O’zbekiston, 2018.
2. Даниэла Стил. Саёҳат: Роман / Таржимон Гулчехра Муҳаммаджон // Жаҳон адабиёти, 2008, №3,4,5.
3. Холбеков М. XX аср модерн адабиёт манзаралари. Т.: “Mumtoz so’z”, 2018. – 305 б.
5. Қаршибоев М. Рухнинг мангу қўнғироғи // Камалак. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 180 б.